

Ilmsizlik zulmati*

Rivoyat



- Qanday hikoyalar o'qigansiz?
- Ular she'rlardan nimasi bilan farq qiladi?



O'qing.



Qadim zamonda o'qish va yozishni yomon ko'radigan bir bola bo'lgan ekan. U turli bahonalar bilan maktabga bormas, borganda ham berilgan vazifalarni bajarmay, faqat yomon baho olar ekan.

Ota-onasining tanbehlariga* quloq solmay, "Men katta bo'lsam, cho'pon bo'laman, qo'y boqish uchun o'qish kerak emas", – der ekan.



U bir kuni o'z uyi yaqinidagi qir-adirdan dorivor giyohlarni terib kelish uchun tepalikka chiqibdi. Giyohlarni terib yurib, uyidan ancha uzoqlashib ketibdi. Yurib-yurib, tubi uncha chuqur bo'lmagan bir daryo sohiliga borib qolibdi.

Giyoh terish maqsadida narigi sohilga o'tmoqchi bo'lib ko'prik qidiribdi. Yaqin atrofdagi ko'prik oldiga borib qarasa, uning chetidagi taxtachaga nimadir yozib qo'yilgan ekan.

Bola yozuvni o'qiy olmabdi va ko'prik ustidan narigi sohil tomon yurib boraveribdi. Ko'prikning o'rtasiga yetganda ko'prik sinib, bola suvga tushib ketibdi. U ovozinig boricha baqirib, yordamga chaqiribdi. Shu orada qo'ylarini boqib yurgan bir cho'pon suvga yaqinlashibdi, bolani ko'rib, uni suvdan chiqarib olibdi.



Keyin boladan so'rabdi:

– Nega bu ko'prikdan o'tding?! Ko'prik chetidagi “Bu ko'prikdan yurmang, nariroqda yangi ko'prik bor”, degan yozuvni ko'rmadingmi?

Bola unga javoban:

– Ko'rdim, lekin o'qiy olmadim, chunki men o'qishni bilmayman, – debdi.

Shunda cho'pon unga:

– E bolam, hatto qo'y boqish uchun ham o'qish kerak, – deb nasihat qilibdi.



zulmat – qorong'ilik

tanbeh – koyish, ogohlantirish



1. Bosh qahramon kim bo'lishni xohlagan ekan?
2. Taxtachaga nima deb yozilgan edi?
3. Bola nima uchun suvga tushib ketdi?
4. Cho'pon bolaga qanday nasihat qildi?



Rivoyatni gapirib berishga tayyorlaning.

